

XORIJIY MAMLAKATLARDA TERGOV SUDYASI INSTITUTI

To‘lanboyev Islombek Ilhomjon o‘g‘li

Farg‘ona yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi 2-bosqich 43-24-guruh o‘quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17592292>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida joriy etilgan tergov sudyasi instituti, uning ahamiyati hamda xorijiy davlatlarning bu borada to‘plagan tajribalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: sud amaliyoti, tergov sudyasi, protsess ishtirokchisi, jinoyat ishi qo‘zg‘atish, ehtiyot chorasi qo‘llash, qamoqqa olish, tergov harakatlari, tibbiy muassasaga joylashtirish.

Аннотация. В данной статье рассматривается институт следственного судьи, внедренный в рамках реформ, проводимых в судебной системе, его значение и накопленный опыт зарубежных стран в этой области.

Ключевые понятия: судебная практика, следственный судья, участник процесса, возбуждение уголовного дела, применение меры пресечения, заключение под стражу, следственные действия, помещение в медицинское учреждение.

Abstract. This article examines the institution of the investigative judge, which was introduced as part of the reforms carried out in the judicial system, its significance, and the accumulated experience of foreign countries in this area.

Key concepts: judicial practice, investigative judge, participant in the process, initiation of a criminal case, application of a preventive measure, detention, investigative actions, and placement in a medical facility.

Yurtimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida so‘nggi yillarda sud-huquq tizimida adolat o‘rnatish yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilgani alohida qayd etilib, hozir ham tergov sifati pastligi, sudlarda odamlarning ovoragarchiligi, sud qarorlari ijro etilmay qolayotgani bilan bog‘liq holatlar uchrayotgani ta’kidlangan edi.

Shu bois Yurtboshimiz sud sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan islohotlar haqida to‘xtalar ekan, bir qator vakolatlar prokurordan sudga o‘tkazilishiga e’tiborimizni qaratdi.

Jumladan, tintuv o‘tkazish, telefon so‘zlashuvini eshitish va mulkni xatlashga sanksiya prokurordan sudga o‘tkaziladi. Tergovchi jinoyatga aloqador deb, har qanday mulkni xatlab qo‘ya olmaydi. Bundan buyon mulk huquqini cheklashga oid har qanday harakat faqat sud orqali bo‘ladi. Sudda ishlarni ko‘rishda qatnashadigan alohida prokurorlar korpusi shakllantiriladi. Ular maxsus o‘qitiladi, ishni sudda ko‘rishda xolis, mustaqil bo‘lishi qonun bilan belgilanadi.¹

Sud tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida joriy yil 1-yanvaridan amalda qo‘llanilishi boshlangan yangi institutsional o‘zgarish, ya’ni tergov sudyasi institutining joriy etilishi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyun PF-89-sonli “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini

¹ O.Karimov. Odil sudlov – insonparvarlik va adolat ustuni https://uza.uz/uz/posts/odil-sudlov-insonparvarlik-va-adolat-ustuni_447134.

ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida²gi farmoni qabul qilindi hamda ushbu farmon bilan tergov sudyalari qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish, pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish, murdani eksqumatsiya qilish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, tintuv o'tkazish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, mol-mulkni xatlash, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish, ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatga qadar uzaytirish hamda guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish va yuqoridagi protsessual cheklashlarga ruxsat berish kabi vakolatlarga ega bo'ldi.³

Mazkur islohotlar barobarida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ham o'zgartirish kiritilib, 31¹-moddasida tergov sudyasining vakolatlari ham belgilab berildi.

Shu o'rinda ushbu institutning shakllanish tarixi hamda xorijiy amaliyot tajribalari xususidagi ma'lumotlarni o'rganadigan bo'lsak, tergov sudyalarining vujudga kelishi haqidagi tarixiy ma'lumotlarni ko'rsak, bu institut Fransiya 14-15 asrlarda paydo bo'lgani va Napoleon hukmronligidagi Fransiyaning 1808-yildagi jinoyat protsessual kodeksida qonun bilan mustahkamlanganini ko'rish mumkin.⁴

Dastlabki tergov jarayonida protsess ishtirokchilarning teng huquqliligi, surishtiruv yoki tergov organi va himoyachining vakolat va vazifalarini tenglashtirgan holda inson huquqlarini to'liq ta'minlashga erishish mumkinligini rivojlangan davlatlari tajribalari ko'rsatib bermoqda.

Xorijiy davlatlarning amaliyotida, misol tariqasida, Fransiya, Germaniya, Belgiya, Avstriya va boshqa yetakchi g'arb davlatlarida tergov ustidan nazorat tergov sudyasining vazifasi ko'rish mumkin.

Albatta, sudyaning dastlabki tergovda to'liq ishtirok etishi tergovga xalaqit berishi mumkin, shu sababli ham faqat insonning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklashda yoki ularni buzilgani haqida shikoyat bo'lganda tergov sudyasi o'zining faoliyatini olib boradi.

Jinoyat sodir etgan shaxsning ushlanishi bilan sudga olib borilishi haqida 1966-yil 16-dekabrda "Fuqaroviy va siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ning 9-moddasida "Jinoiy ayblov bo'yicha hibsga olingan yoki ushlab turilgan har bir shaxs zudlik bilan sudya yoki qonun bo'yicha sud hokimiyatini amalga oshirish huquqi bo'lgan boshqa mansabdor shaxs huzuriga keltiriladi va oqilona muddatda sud muhokamasi o'tkazilishi yoki ozod qilib yuborilishi huquqiga ega. Sud muhokamasini kutayotgan shaxslarning qamoqda saqlanishi umumiy qoida bo'lmasligi kerak, biroq ozod qilish sudga kelish kafolatlarini berilishiga, sud muhokamasiga uning har qanday bosqichiga kelishga, zarur hollarda, hukm ijro etilishi uchun kelishga bog'liq qilib qo'yilishi mumkin.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyun PF-89-sonli "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni <https://lex.uz/docs/6964387>.

³ A.Ergashev. Yangi o'zbekistonda sudlar faoliyatiga doir islohotlar, maqsad va vazifalar. NEW RENAISSANCE International scientific journal ResearchBib IF - 11.01, ISSN: 3030-3753, Volume 2 Issue 10. 602-606-betlar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17477724>

⁴ Tergov sudyalari: "ikki qutb" o'rtasidagi adolat tarozisi. <https://sudyalariyengashi.uz/uz/news/854>.

Hibsga olinishi yoki qamoqda saqlab turilishi tufayli ozodlikdan mahrum etilgan har bir shaxs o'z ishinig sudda ko'rib chiqilishi huquqiga ega, toki sud uning ushlab turilishi qanchalik qonuniy ekanligi borasida darhol qaror chiqara olsin va agar uni ushlab turish noqonuniy bo'lsa ozod qilish haqida farmoyish bera olsin", deb bayon etilgan.

Tergov sudyasining bo'lishi bugungi kundagi davlatimiz sud-huquq tizimidagi eng katta muammo, ya'ni tergovning sifatini oshishiga, dalillarning to'liq va obyektiv to'planishiga, tergovda inson huquq va erkinliklari buzilishining oldini olishga, umuman olganda tergovni professional olib borishga katta yordam beradi. Chunki aynan dastlabki tergovning sifatli o'tkazilishi odil sudlovni amalga oshirishda katta va asosiy rol o'ynaydi. Jumladan, ayrim davlatlarda tergov sudyasi tomonlarning iltimosiga muvofiq, dastlabki tergov jarayonidagi so'roqlarda kuzatuvchi tariqasida ishtirok etishi mumkin.⁵

Bir qator davlatlar qonunchiligida tergov sudyasi o'zi mustaqil tarzda jinoyat ishi qo'zg'atmaydi, ammo u sudya va tergovchining ayrim vakolatlarini o'zida jamlagan. Ayrim davlatlarda tergov sudyalari, tergov harakatlarini jumladan, tomonlarning iltimosiga muvofiq taraflarni so'roq qilish, ularni yuzlashtirish, ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish, ekspertizalar tayinlash bilan protsessual harakatlarni ham amalga oshirish vakolatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Muhim jihati shundaki, tergov sudyalari jinoyat sodir etgan shaxslarni, aybdorlarni axtarmaydi, ularning jinoyatini fosh etmaydi, ular faqat dastlabki tergovda yoki surishtiruvda qonunlarni to'g'ri qo'llanishi va fuqarolarning huquqlari buzilmasligini nazorat qiladi va uni ta'minlaydi.

So'zimiz yakunida o'rganishlar natijasidan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlkatimizda ham tergov sudyalariga shaxslarni qamoqqa olishga, protsessual majburlov choralarga ruxsat berishda ish hujjatlari bilan to'liq tanishib chiqish, shaxsning aybsiz yoki aybdorligini muhokama qilish, ayblovni o'zgartirish yoki bekor qilish singari ko'rsatmalar berish vakolati orqali ushbu yo'nalishdagi sudyalarning mas'uliyati kuchaytirilib, tergov sudyalarining mustaqilligini ta'minlanadi, dastlabki tergovda shaffoflik va obyektivlikni ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/5534923>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustda PF-141-son "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/7696594>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyun PF-89-sonli "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni <https://lex.uz/docs/6964387>.
5. A.Ergashev. Yangi o'zbekistonda sudlar faoliyatiga doir islohotlar, maqsad

⁵ Tergov sudyalari: "ikki qutb" o'rtasidagi adolat tarozisi. <https://sudyalariyengashi.uz/uz/news/854>.

6. va vazifalar. NEW RENAISSANCE International scientific journal ResearchBib IF - 11.01, ISSN: 3030-3753, Volume 2 Issue 10. 602-606-betlar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17477724>
7. Tergov sudyalari: “ikki qutb” o‘rtasidagi adolat tarozisi. <https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/news/854>.
8. O.Karimov. Odil sudlov – insonparvarlik va adolat ustuni https://uza.uz/uz/posts/odil-sudlov-insonparvarlik-va-adolat-ustuni_447134.